

VOYAGA YETMAGANLAR HAMDA YOSHLAR O'RTASIDA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISH

Nazarova Go'zal Alisher qizi

IIV Akademiyasi 1-bosqich kursanti

Anotatsiya: Maqolada voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashishdagi chora-tadbirlar tahlil etilgan. Voyaga yetmaganlar va yoshlar jinoyatchiligi va huquqbazarliklari xususiyati aniqlanib uning sabablari olib berildi. Yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilikning oldini olishning asosiy yo'naliishlari haqida yoritib berildi, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik toifalari haqida ma'lumotlar keltirildi, jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbazarliklarga qarshi kurashishdagi yurtimizda amalga oshirilayotgan so'nggi islohotlar haqida hamda bu boradagi tizimli ishlarning natijalari statistik ma'lumotlar sifatida, foizlar bilan ko'rsatildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ustuvor vazifalaridan biri etib belgilangan hamda davlat organlarining voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasidagi huquqbazarlik shuningdek, jinoyatchilikni oldini olishdagi maqsad va vazifalari nimadan iborat ekanligi haqida yoritildi.

Kalit so'z: voyaga yetmagan, huquqbazar, jinoyatchilik, jinoyatchilik toifalari, islohotlar, umumiy, individual, disfunktional, tramadol, sonnat, lirika, psixofaol dori vositalari, "Yoshlar — kelajagimiz" dasturi, "Jinoyatga qarshi kurashish haqiqati va adolati" tizimi, vagratsiya, huquqiy madaniyat.

Anotation: the article analyzes measures in preventing and combating juvenile and juvenile delinquency. The nature of juvenile and juvenile delinquency and offenses was determined and its causes were revealed. The main areas of prevention of crime among young people were covered, information was brought about the categories of crime between minors and young people, about the latest reforms carried out in our country in the early prevention and fight against crimes, and the results of systematic work on this subject were shown as statistics, with interest. It has been highlighted as one of the priorities of the OECD and what are the goals and objectives of the state bodies in preventing juvenile and juvenile delinquency as well as crime.

Keyword: juvenile, offender, crime, crime categories, reform, General, individual, dysfunctional, tramadol, sonnat, lyric, psychoactive drugs," Youth — Our Future "program," truth and justice to fight crime" system, vagrations, legal culture

Аннотация: в статье проанализированы меры по предупреждению и борьбе с преступностью среди несовершеннолетних и молодежи. Выявлен характер преступлений и правонарушений несовершеннолетних и молодежи, выявлены их причины. Освещены основные направления предупреждения преступности среди молодежи, приведены данные о категориях преступности среди несовершеннолетних и молодежи, представлены статистические данные о последних реформах, проводимых в нашей стране в области раннего предупреждения преступности и борьбы с правонарушениями, а также результаты системной работы в этом направлении в процентах. Было освещено, что определено как одна из приоритетных задач Олий Мажлиса Республики Узбекистан и каковы цели и задачи государственных органов по профилактике правонарушений среди несовершеннолетних и молодежи.

Ключевое слово: несовершеннолетний, правонарушитель, преступность, категории преступности, реформы, общий, индивидуальный, дисфункциональный, трамадол,

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-OKTABR, 2024

соната, лирика, психоактивные препараты, программа “Молодежь — наше будущее”, система “реальность и справедливость борьбы с преступностью”, бродяжничество, правовая культура

Hech kimga sir emas, hozirgi kunda davlat siyosatining dolzarb masalasidan biri bu-yoshlarninig ta’lim va tarbiyasidir. Mamlakatimiz amalga oshirayotgan barcha yoshlarga tegishli islohotlar zamirida yosh avlodning barkamol kelajagi, aqlan hamda jismonan sog’lomligi, asosiysi ijodiy va mustaqil fikrlashga qodir, intelektual salohiyati yuksak bo’lgan va kutilayotkan yosh avlodga g’amxo’rlik yotadi.

Avvalo voyaga yetmaganlar izoh bersak. Voyaga yetmaganlar - amaldagi O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko’ra, 18 yoshga yetmagan fuqarolar voyaga yetmaganlar hisoblanadi. Voyaga yetmaganlarni tarbiyalash vazifasi — davlat burchi, fuqarolarning esa konstitutsiyaviy majburiyati hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolar kabi Voyaga yetmaganlarning bilim olish, mehnat qilish, dam olish, mulqdar bo’lish kabi huquqlari ta’milangan.¹ O’zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksida 14 yoshdan 18 yoshgacha bo’lgan Voyaga yetmaganlarning muomala layoqati belgilangan, ular ota-onalari, farzandlikka oluvchilari va homiylari roziligidan mustaqil ravishda:

- 1) o’z ish haqi, stipendiyasi va b. daromadlarini tasarruf etish;
- 2) fan, adabiyot yoki san’at asarining , ixtironing yoxud o’z intellektual faoliyatining qonun bilan qo’riqlanadigan boshqa natijasining muallifi huquqini amalga oshirish;
- 3) qonunga muvofiq kredit muassasalariga omonatlar qo’yish va ularni tasarruf etish;
- 4) mayda maishiy bitimlarni hamda boshqa bitimlarni tuzishga haqli ekanligi ko’rsatilgan, boshqa bitimlarni ular o’z ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining yozma roziligi bilan tuzadilar. Ular roziliga binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanayotgan yoki mehnat shartnomasi bo’yicha ishlayotgan 16 yoshga to’lgan Voyaga yetmaganlar muomalaga to’la layoqatli deb e’lon qilinishi mumkin.²

Voyaga yetmaganlar mehnatga oid munosabatlarda katta yoshdagи xodimlarga tenglashtiriladi, lekin mehnat muhofazasi, ish vaqqi, ta’tillar berish va b. mehnat shartlari bo’yicha qo’shimcha imtiyozlardan foydalanadi. O’zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida 18 yoshga to’limgan shaxslarni ishga qabul qilishdagi kafolatlar, ularning mehnatga oid huquqlari va h.k. belgilab berilgan.³ Voyaga yetmaganlarning jinoiy ishlarini yuritishda maxsus qonun me’yorlari orqali qo’shimcha huquqlar kafolatlangan. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyat, shahar va tuman hokimliklari huzurida Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug’ullanuvchi komissiyalar tuzilgan.

Huquqbazarlik - huquq va muomala layoqatiga ega sub’yekt tomonidan sodir etiladigan, huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmish.

Huquqbazarliklarning oldini olish, jinoyatchilikni jilovlash masalasi ham davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan. Yoshlar o’rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbazarliklarning oldini olish yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar,

¹ O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: 36-40-41-moddalar.

² O’zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksi: 27-28-29-moddalar.

³ O’zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi: 239—247-moddalar.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-OKTABR, 2024

jumladan Ichki ishlar organlari Huquqbuzarlilar profilaktikasi xizmati bilan birga mahalliy hokimlik va boshqa mutasaddi idoralar zimmasiga muhim vazifalar yuklangan. Ular buni bajarish bo'yicha turli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Shunga qaramay jinoyatlar uchrayotgani, jinoyat qilgan shaxslarning har uchinchisini yoshlар tashkil qilayotgani achinarli hol.

Umuman olganda, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishni ikki katta guruhga bo'lib olish mumkin:

- umumiy
- individual

Umumiy guruh sub'ektlarning cheksiz doirasiga yo'naltirilgan bo'ladi. Individualda esa huquqbuzarning o'ziga xos shaxsiga qaratilgan bo'ladi.

Voyaga yetmaganlar va Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikining oldini olishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- oilaviy nizolarni o'z vaqtida hal qilish;
- mastlik va giyohvandlikning oldini olish;
- jamoat tartibini muhofaza qilishni ta'minlash, tungi vaqtarda to'g'ri yoritishni ya'ni chiroqlarni ko'paytirish ta'minlash;
- ruhiy kasalliklar va buzilishlar bilan og'rigan shaxslarni aniqlash;
- aholini huquqiy ta'lim va tarbiyalashni tashkil etish.

Voyaga yetmaganlar va Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikining oldini olishda maxsus chorralardan ham qo'llaniladi. Maxsus choralar bu - voyaga etmagan huquqbuzarning shaxsiga, shuningdek, jinoyatni yuzaga keltiruvchi omillarga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan choralar. Ushbu chora-tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarda aybdorlik tuyg'usini shakllantirishdan iborat, chunki bu nafaqat kelajakda jinoyatchilikka bo'lgan munosabatga salbiy ta'sir ko'rsatishi, balki uning takrorlanishining oldini olishi ham mumkin.

Yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilar toifasiga kelsak, u jinoyatchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega va quyidagi guruhlardan iborat:

- ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli past, intellektual darajasi yetarli bo'lmagan, jamiyatning ijtimoiy va madaniy asoslarini buzuvchi xulq-atvorga moyil bo'lgan, disfunktional, ijtimoiy jihatdan nojo'ya oilalardan chiqqan voyaga yetmaganlar;
- badavlat oilalardan bo'lgan voyaga etmaganlar, jazosiz qolish va yo'l qo'yishga moyil bo'lganlar;
- tajovuzkor voyaga etmaganlar muammo va nizolarni kuch bilan hal qilish usuliga murojaat qiladilar;
- yoshlar harakati vakillari, jamiyatning ijtimoiy va madaniy asoslari muxoliflari;
- vagratsiyaga (sargardonlikka) moyil bo'lgan voyaga etmaganlar.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-OKTABR, 2024

Agar statistik ma'lumotlarni hisobga oladigan bo'lsak, voyaga etmaganning jinoyatchi shaxsini shakllantirishning boshlang'ich nuqtasi bo'lgan juda ko'p oilaviy sabablar mavjudligi va natijada u tomonidan jinoyat sodir etilishi aniqlanishi mumkin.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda o'tkazilgan islohotlar natijasida jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda yangi ish uslublari tatbiq qilinib, aholi va jamoatchilik bilan uzviy muloqot yo'lga qo'yildi, ushbu sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etildi

Amalga oshirilgan tizimli ishlar natijasida 2018-yilning 7 oyida umumiy jinoyatlarning 38,2 foizga, jinoyat-qidiruv yo'nalishidagi jinoyatlarning 38,3 foizga kamayishiga erishildi.

Biroq, jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasidagi faoliyatda yechimini kutayotgan xato va kamchiliklar hamda foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjud.

O'tkazilgan tadbirlar va ko'rilgan choralar yetarli darajada samara bermaganligi oqibatida, Andijon, Surxondaryo viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida qotillik va badanga og'ir tan jarohati yetkazish, Farg'ona viloyatida nomusga tegish, Jizzax viloyatida bosqinchilik, Namangan, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida transport vositasini olib ochish jinoyatlari oshgan.

Ichki ishlar, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari, Yoshlar ittifoqi, Xotin-qizlar qo'mitasi va boshqa jamoat tashkilotlari faoliyati ham kutilgan natijalarni bermagan.

Jinoyatlarning qariyb 30 foizi voyaga yetmaganlar va yoshlar, 12,5 foizi xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan.

Afsuski, yoshlar o'rtasida ularning sog'lig'i, tarbiyasi va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tramadol, sonnat va lirika kabi psixofaol dori vositalariga ruju qo'yish holatlari anchagina ko'paygan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan hamda voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasidagi holat yuzasidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi qaror qiladi:

- Jinoyatchilikni barvaqt oldini olish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish faoliyatida "Jinoyatga qarshi kurashish haqiqati va adolati" tizimini tatbiq etish hamda "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi ijrosi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ustuvor vazifalaridan biri etib belgilansin.
- Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyalari faoliyatini yanada kuchaytirsin;
- Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari va Yoshlar ittifoqi hamda boshqa jamoat tashkilotlari bilan birgalikda ta'lim muassasalari o'quvchilarining dars vaqtida bozorlar, savdo markazlari, hiyobonlar va ko'ngilochish joylarida bo'lishini oldini olish borasida muntazam ravishda tadbirlar o'tkazib borsin.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlar davlatimizning siyosiy islohotlari orqali amalga oshirilmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar va kelgusidagi konsepsiyalarning ishlab chiqilishi

nafaqat davlat, balki jamiyat manfaatdorligini ko'rsatadi. Statistik tadqiqotlar natijalariga ko'ra jinoyatchilik darajasining kamaygani ham amalga oshirilgan ishlar samaradorligini tasdiqlaydi. Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasidagi jinoyatchiliklarni barvaqt oldini olishda nafaqat davlat organlari balki mahallaning ham har bir a'zolari, atrofda bo'layotgan hodisalarga befarq bo'lmasliklari kerak. Yoshlarning kelajagi barkamolligi-yu porloqligi hamda buning aksi bo'lsa ham, bu bizning yurtimiz yoshlariga bo'ladi, bizning kelajagimiz hisoblanadi. Buni xis qilib davlatimiz harakat qilayabdimi, biz ham jim qarab turmasligimiz lozim.

Foydalanimanligi adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/-111453> [O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeks]
2. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarliklarning oldini olish bo'yicha ishlarni davom ettirish kerak, deb hisoblaydi ijtimoiy faollar<https://iiv.uz/ru/news>
3. Khatamov B.K. (2022). Personality of a juvenile delinquent. Innovative science. No.2. pp. 31.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 11.08.2018 yildagi qo'shma qarori, "Mamlakatda jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbazarliklarga qarshi kurash holati" to'g'risidagi qo'shma qarori, 1896-III-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-sonli qarori "Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan vazifalar ijrosi ustidan ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirish" to'g'risida.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
7. O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksi.